XALQ DEPUTATLARI SHEROBOD TUMANI KENGASHINING QARORI

Sherobod tumani, A.Navoiy ko‘chasi 22-uy. 191400, tel.: (+99876) 322-11-26

2023 - yil 20 - aprel VI-65-90-8-119-K/23 Sherobod tuman hokimligi

Xalq deputatlari Sherobod tuman Kengashining 2023-yil 5-yanvardagi VI-59-1-8-119-K/23-son qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risidagi” Qonuni 24-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 127-moddasiga muvofiq tuman mahalliy budjetining 2023-yilgi budjet paramerlarini belgilangan xarajatlariga tegishli o‘zgartirish kiritish maqsadida, xalq deputatlari Sherobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 127-moddasi, Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 5-yanvardagi “Sherobod tumaning 2023-yilgi mahalliy budjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-59-1-8-119-K/23-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 30-dekabrdagi 05/21-32/355-sonli xati ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002-yil 14-martda 1111-son bilan ro‘yxatga olingan Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalarining asosan 2023-yilgi mahalliy budjet parametrlarida belgilangan xarajatlarini rejasi 99250,0 (To’qson to’qqiz million ikki yuz ellik) ming so‘mga tegishli o‘zgartirish kiritilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 5-yanvardagi VI-59-1-8-119-K/23-son qaroriga quyidagicha o‘zgartirish kiritilsin.

2-ilovasi 4-bandidagi «4879036» raqami «4779786» raqami bilan, 2-ilovasi 18-bandidagi «12794» raqami «112044» raqami bilan almashtirilsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Mamayusupov), “Sherobod hayoti” gazetasi tahririyati (P.Muhammadiyev) mazkur qarorni tuman hokimligi rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini

ta’minlasin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Choriyev zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **M.S.Jo‘rayev**